



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 5-avgust, seshanba,  
88 (24.114)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Yaxshi  
naql -  
tomiri aql

# Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

## VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

### Yangi avtovokzal ishga tushdi



**Samarqand shahrining Cho'pon ota hududida ko'p tarmoqli infratuzilmaga ega zamonaviy avtovokzal majmuasi foydalanishga topshirildi.**

Davlat-xususiy sheriklik asosida 4,6 gektar maydonda barpo etilgan avtovokzalda tadbirkor tomonidan 12 million AQSH dollarlik qurilish ishlari amalga oshirildi.



Yangi majmuaning ochilish marosimida ishtirok etgan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A. Boboyev viloyatda aholiga jamoat transporti xizmati ko'rsatish sifatini oshirish, avtobus parklarining yangilanayotgani haqida so'z yuritdi. Mazkur avtovokzal ham bu boradagi ishlarning samarasi o'laroq bunyod etilganini ta'kidladi.

Bu yerda yo'lovchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Keng va yorug' kutish zali, ona va bola xonasi, bolalar maydonchasi, tibbiyot xonasi, elektron tablo, shuningdek, imkoniyati cheklangan fuqarolarning erkin harakatlanishi uchun barcha sharoit mavjud.

Yangi majmua tarkibida avtobus, mikroavtobus va yo'nalishsiz taksi-klar uchun alohida kutish maydonlari barpo etilgan. Avtotransportni texnik ko'rikdan o'tkazuvchi mexanik xizmati yo'lga qo'yilgan.

Loyiha doirasida nafaqat yo'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, balki keng ko'lami xizmat ko'rsatish va savdo maydonlari ham barpo etildi. Hududdagi 120 ta savdo do'koni, 3 ta zamonaviy restoran, 14 ta servis shoxobchasi, 1 ta avtosalon, 2 ta mehmonxona shular jumlasidan.

Avtovokzal bir vaqtning o'zida 140 dan ortiq avtobusni qabul qilish va 1000 nafardan ortiq yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega, - deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Ravshan Tojiyev. - Bu yerdan nafaqat viloyatimiz va Samarqand shahriga, balki respublikamizning barcha hududlariga avtobus qatnovi amalga oshiriladi. Hatto Qozog'iston, Tojikiston va Rossiya-ga ham qatnovlar yo'lga qo'yilish rejalashtirilgan. Mazkur majmuaning foydalanishga topshirilishi viloyatimizda avtotransport sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yangi bosqichga ko'tarish, shaharlararo va viloyatlararo qatnovchi transport vositalarining qatnovini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangi avtovokzal va uning atrofidagi xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyati yo'lga qo'yilish bilan 300 nafar doimiy ish o'rni yaratildi.

**B.MUSTANOV.**



### Ko'pning oshi shirin bo'ldi

**Milliy taomlarimizni keng targ'ib etish hamda viloyatda gastronomik turizmni rivojlantirish maqsadida 1-3-avgust kunlari "Samarqand oshi" xalqaro festivali o'tkazildi.**

(Davomi 3-sahifada) >>>



ёки мақолага  
сизмаган Самарқанд

**Абдусайд КҶЧИМОВ,**  
Ўзбекистон Республикаси  
Олий Мажлиси Сенати аъзоси,  
Ўзбекистон Республикасида хизмат  
кўрсатган ёшлар мураббийси.

**1**  
Отам оддий колхозчи, аммо ғурури балинд киши эди. Кишлоқ ва қишлоқдорлар шаъни учун кайғуришни ўзи учун шарафли бурч, деб ҳисоблар ва мавриди келганда бошқаларнинг ҳавасини келтириш мақсадида озгина лоф ҳам қиларди.

Қиш кунларининг бирида ҳамқишлоқлар от-эшақлар билан туманининг нариги томонидаги овулга тўйга боришади.

– Кишлоқимизда мактаб қурилди! – дея мактабда сўхбатлашиб ўтиришганида мезонларнинг «огзи каттаси». – Энди зўр «кулуп» қурамиз...

– Э-э, кейинда қолкетипсилар-ку! – дарров жавоб қайтаради отам. – Анча бўлди бизни қишлоққа поезд келганига!

Мезонлар тугул, ҳамқишлоқларимиз ҳам ер остидан бир-бирига маъноли қараб олишади, аммо сир беришмайди.

– Ҷўчимбой, лоф ҳам эви билан-да, – дейди қайтиша-ётганда Мустафоқул бобо. – Кўчангизда эшақарава зўрға юради-ю, поезд дейсиз-а-а?

– Молхонадаги темир излар поезд йўли бўлмай, нима? – бўш келмайди отам. – Дунё беҳабарсиз-да, Мустафоқул...

Бу жавобдан роҳатланган ҳамқишлоқлар кула-кула, эшақка хала босадилар.

Дарҳақиқат, чўпон-чўлиқларга осон бўлсин учун ўша пайтда молхонадан чуқурга 25-30 метрча узунликда темир излар ётқизилган эди...

Утган асрнинг 60-йилларидаги гаплар бу. Қанча сувлар оқиб кетди ундан сўнг. Замонлар ўзгарди, советлар даври тугади, мустақил бўлди. Аммо бундан атиги ўн йил аввал ҳам бу гапларга ҳеч қим ишонмас, тушингни сувга айт, деб масҳара қилишарди. Қалови топилса, халқ қалқса, асрларга татиғулик ишлар бўлиши мумкин экан ўн эмас, икки-уч йилда ҳам. Ургут темир йўли бунга ёрқин мисолдир. Йўл Ўзбекистон Президентини 2023 йил 10 октябрда имзолаган қарордан кейин режалаштирилди. 2025 йилнинг 27 май куни ўтказилган тақдиротда эса давлатимиз раҳбарига маъмур йўлнинг 7 километрга темир излар ётқизилгани тўғрисида ахборот берилди. Одамларнинг кўз ўнгига эртақлар чинга, афсоналар ҳақиқатга айлана бошлади.

54,5 километр узунликдаги темир йўл икки йилга етар-етмай тикланди ҳисоб.

54,5 километр! От-арава ёки машина йўли эмас – темир йўл. Яна қаерда? Мамлакатимизнинг Тожикистон билан чегарадош сарҳадларида!

Самарқанд вилоятининг Жомбой туманидаги «MAN» за-

води яқинидан бошланган темир излар 4Р – 238 автомобиль йўлини кесиб ўтиб, Зарafшон ёқалаб, Жомбой, Самарқанд, Тойлоқ туманлари оралаб, дарё кўпригидан ҳатлаб, Ургутга етди. Йўл ўтган овулларда бекатлар ташкил этилди, 2 та зомонавий вокзал, Ургут шаҳри ва «Ургут» иқтисодий зона-сида 2 та юк станцияси, иккита темир-бетон кўприк барпо қилинди. Ургутнинг Тожикистон билан чегарадош «Жар-тепа» чегара божхона пости яқинида қурилаётган бекат ҳадемай тожикистонлик биродарларимизга юртимиз бўйлаб темир йўл орқали саёҳат қилиш имконини беради.

Темир йўл ишга тушган, унинг логистик имкониятлари ҳам одамнинг ҳавасини келтиради. Биринчидан, маҳсулот ташиш харajatлари арзонлашади. Шу пайтгача маҳсулотни машиналарда олиб келиб, Самарқанддан юк поездларига ортан тadbир-корлар энди бу нуқулалликдан кутулиб, маҳсулотни дала-нинг ўзида ёки корхона оstonасида туриб вагонларга жойлаштиради. Иккинчидан, ҳар кун орти минг йўловчи, тўрт минг тоннагача юк ташиш имкони пайдо бўлади. Учинчидан, аҳолининг узoғи яқин бўлади, сайёҳлик дарвозалари катта очилади.

Темир йўл атрофларини обод этишда тadbиркорлар ҳам фаол иштирок этмоқда. Биргина тadbиркор Анвар Темиров-нинг ўзи беш гектар майдонда гўзал мажмуа қураётир. Унда зомонавий темир йўл ва автовокзал, IT парк, 200 ўрин-лиг меҳмонхона, 300 ўринли хусусий мактаб, 200 ўринли мактабгача таълим муассасаси, оилавий поликлиника, бир нечта кўп қаватли тураржой бинолари бор.

**2**  
Бу Самарқанд вилоятда амалга оширилаётган бунёд-корлик ишларидан бир шигил, холос. Ҳаммасини таърифлаш учун эса, шойрона тилда айтганда, юзта Фирдавсий керак. Қўтлуг бу заминга қадам қўйган киши, бир эмас, ўн эмас, юзлаб муҳташам ўзгартишларнинг гувоҳи бўлади: ҳар қадамда равон кўчалар, уйлар, корхоналар, боғлар, хиёбонлар... ва... ва ҳаммасидан қувончлиси, одамларнинг юз-кўзларидидаги маҳваб севинчлар, шижоатлар, ўзига, эртасига мустақкам ишонч, яшаш иштиёқи, ҳаётга муҳаббатнинг порлоқ шуълалари...

Ҳақиқатан ҳам, сўнгги йилларда Самарқандда юз бераётган катта эврилишлар ҳар қандай одамнинг кўксини Ургут тоғлари қадар юксалтириб юборади.

Ҳар қўкат ўз суйган тупроғини, ҳар тойчоқ ўзи сув ичган бўлоғини мактайди, дейдилар. Мен эса, самарқандлик бўлганим учунгина ардоқли кўрғонимга зиёда таъриф бераётганим йўқ. Қолаверса, Самарқанд ундай мактовларга муҳтож ҳам эмас. Мен, эси кирганидан буён содир бўлаётган янгиликларни баҳоли қудрат кузатиб келаётганларнинг бири сифатида дилимдагиларни тилга оляман, холос. Эсимни та-ний бошлаганимга эса, мана, Худойимга шуқурлар бўлсин-ки, етимиш йилдан шимди. Шўро замони, мустақиллик, ундан кейинги йиллар – ҳаммаси кўп қисмли кинодек тизилишиб турибди кўзим олдида. Бу кинога нигоҳ ташлагудай бўлсам,

бирда этим увишади, бирда мунаввар қувончларга, муат-тар уйларга чўмаман. Эслаганда, эт увишадиган болалик, муздай сув-лойга ботиб, тамаки экишлар, сўфи азон айтмай кўзларим ишқалаб дашта жўнашлар, тухум пишадиган ёз жазирасида эшақларни моташтириб сомон янчишлар, томчилар чақиллаб турган эча синфхоналарда йиртиқ чо-понларга бурканиб дарса ўтиришлар... Майли, у замонлар олисларда қолди, утган ишга саловат. Лекин яқинларда ҳам шундай янглик кўринишлар бор эдики, эсласанг, этинг уви-шиб, ваража кўзиди вужудингда. Масалан, йўл азоблари.

Этибор қилинг, Тошкент – Термиз катта трассасидан Ургут шаҳарчасигача 15 километр ё чиқади, ё йўқ. Аммо Тош-кентдан Самарқандгача бир азоб бўлса, мана шу 15 қақирим – ўн эмас, юз эмас, минг азоб эди! Бир қарич текис жой йўқ, тўрт тараф мисоли шудгор, машина тугул, тракторниям «ичи тушиб» кетарди «тухум каробка» дейилмиш ўйдим-чуқур кўчадан ўртунча. 20-30 йил эмас, 8-9 йил аввалги аҳвол бу.

Энди-чи? Энди автоавариялар, қондабузарликлар кўпайиб кетганидан, бир неча жойга йўлчиқроқ – сфетофорлар ўрнатилиб, тезликка чекловлар белгиланди. Йўл ойнадек бўлган, ҳайдовчи деганининг завқи тошиб, газни босгиси келиб кетар экан-да!

Ҳа, 8-9 йил орасида неча замонлар тизза бўйи чанг-лой-га беланиб ётган илди ўтмас кўчалар текисланди, асфальт-ланди, чирой очди. Бўсагага қадам қўйсанг, бошинг «так» этиб эшик пештоқига уриладиган етим уйлар ўрнида серқа-ват, серсават иморатлар қурилади. Дайди шамол шувоклар-ни коптоқдай думалатиб юрган даштларда 9-12 қаватли бинолардан иборат янги шаҳар пайдо бўлди. «Маҳаллада дув-дувар гап» киносидаги фариштанчеҳра момоларга ўхшаш бувиларимиз балинд уйлар пешайвонда еллиниб ўтири-шибди – сурайё хаёллар оғушида ҳукуматга дуолар айтиб.

Гап Ургутдан бошлангани учун, келинг, туман қиёфаси-га доир айрим чизгиларга нигоҳ ташлайлик. Бундан 15-20 йил бурун бу маконда тамаки заводидан бўлак санаятга до-хил тилга олгулик корхонани учратиш анқонинг уруги эди. Уям номига тамакини чала-чулпа ферментация қиларди, хо-лос. Тугма топсанг, игна, игна топсанг, тугма қидирдинг.

Энди-чи? Айтсам, элдан узоқ айрим «оға»лар, «Эх-хе, Ургут жаннатга айланиб кетган экан-у, беҳабар қолиб-миз-да», дея муғомбирона меровисрашлари мумкин. Ношу-кур дейимизи, худбинми, ишқилиб, маъзур тўдага мансуб-лар ҳаммиша, ҳамма замонларда бўлган, бундан кейин ҳам бўлади. Қолаверса, нуфузи 40 миллионга яқинлашяётган мамлакатда икки-учта ҳасадгўйнинг учраб туриши ҳам табиий-да. Бундан фожиа яшаё ўхшашга тушишга ҳожат йўқ. Боболаримиз айтганлар-ку, ҳар инсоннинг дўсту душмани, ҳар ўлқанинг гулу тикани бўлади, деб. Демак, ютукларингдан боши осмонга етгучилар каторида аламза-даларнинг бўлиши, боғингда унган ҳар гул уларнинг бада-нига тикандай қадалиши ҳам янглик эмас. Ёмон балиқ сув лойқалатади, ёмон мўридан аччиқ тутун чиқади, виждонсиз кимса эса маҳалла бўлоғини булғамоқчи бўлади. Аммо бил-

майдики, ит вовуллагани билан тоғ қуламайди, бир кесак билан дарёни лойқалатиш мумкин эмас.

Хуллас, тузингни еб, тузлуғинга тупурғувчиларга Ху-дойимдан инсоф сўраб, уларга боболаримизнинг «Тикан бўлиб оёққа қадалгунча, гул бўлиб кўкракка санчил» деган насихатини эслатамиз-у, яна Ургутга қайтамыз.

Биттагина «Ургут» эркин иқтисодий зонасида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг ўзи ҳар қандай кишини ҳайратга солади.

Ўғини сўрасангиз, «Ургут» эркин иқтисодий зонаси» деган гап бундан 7-8 йил аввал бир одамнинг тушида ҳам йўқ эди. Илк бор Президент Шавкат Мирзиёев томонидан истеъмолга киритилди шуқулбу бу ибора. 2017 йил 12 январда давлатимиз раҳбарининг Ургут бўйича махсус фар-мони қабул қилинди-ю, то маънода янги давр, янги ҳаёт бошланиб кетди қадим заманда. Шу ўринда, кимдир биби, кимдир билмайдиган бир рақамни эслатай: Ургут мамлака-тимиз қишлоқ туманлари ичида нуфузи балиндлиги жиҳа-тидан қарвонбоши ҳисобланади – аҳолиси 600 мингга яқин. 600 минг! Бу Тинч океани жанубидаги Тонга деган мамлакат аҳолисидан беш баробар кўп, деганидир. Ер майдони эса дўппидайгина. Шуниям яри тоғ-у, яри тошлоқ. Осонми бундай шароитда 600 минг жоннинг тирикчилик қилмоғи? Аммо, меҳнат қанча оғир бўлса, нони шунча ширин бўлади; меҳнат ҳам эгиз-эгиз, давлат ҳам эгиз-эгиз; меҳнат қилсанг, яшарсан, катта-катта ошарсан, дейилмиш шарқона ҳик-матлар қанчалар мукамал эканини кўрмоқчи бўлсангиз, Ургутга бориңг. Ишинг кўзини топган, меҳнатда тобланган, меҳнатда синалган, меҳнат билан тошда гул ундиряётган одамларни кўрасиз, кўриб ҳайратларга кўмиласиз. Меҳнат-нинг тағи роҳат, эканига имон келтирасиз. Меҳнатсиз бахт келмаслиги-ю, меҳнат қилган одамларнинг тоғдек кўкрак кериб юришларига дил-дилдан ҳавасингиз келади.

Энди айрим рақамларга мурожаат қиламиз. Тўғри, рақам-лар гоҳида зерикарли туюлади. Ваҳоланки, рақам – бу гарқ пишган шигил-шиғил мевалари кўзни қамаштиргувчи мева-зор боғ. Рақамлар тисмолидаги мўл ҳосил лаззати дилларни яйратади. Президентимизнинг юқорида номи тилга олинган фармонидан кейин икки-уч йил ичида «Ургут» эркин иқти-содий зонасида қиймати 402 миллион доллардан зиёд 84 та инвестиция лойиҳаси амалга оширилгани, 313 миллион долларлик 55 та лойиҳа бўйича ишлаб чиқариш бошлангани, 4,5 мингдан зиёд киши иш билан таъминлангани каби шоён воқеалар шавқини рақамларсиз ифодалаб бўладими? Ёки бу ерда ташкил этилган корхоналар томонидан газ плиталардан энгил санаят ва чарм-пойабзал товарларига, гиламлар, ги-гиена воситаларидан электр техникаси буюмлари сингари 220 турдаги маҳсулотларга ишлаб чиқариш йўлга қўйилгани-ю, фақат 2020 йилнинг ўзиде 1,2 триллион сўмлик маҳсулот тай-ёрланиб, 30 миллион долларлик қисми экспорт қилингани-чи?

(Davomi 2-sahifada) >>>

Ер юзининг

САЙҚАЛИ

ёки мақолага  
сиғмаган Самарқанд

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

Бог жамоли богбондан, ғозлар йўлбошчисиз учмайди, деганлари шу эмасми? Эл огаси элни ўйлайди, элга суянади, элим дейди. Эл кучи эса сел кучи. Туну кун элим, халқим, Ватаним деб куюнган Президент Самарқандга қилган ташрифи чоғида қайта-қайта Ургутда бўлди. Эркин иқтисодий зонада бажарилаётган ишларни таҳлил қилди, тавсиялар берди, йўл-йўриқлар кўрсатди.

Шу кунларда умумий ер майдони 1559,3 гектар бўлган мазкур манзилда умумий қиймати 1540,6 миллион долларлик 162 та лойиҳа устида иш олиб борилмоқда. Режага кўра, 12617 та янги иш ўрни яратилиши керак. Лойиҳаларнинг 41 таси енгил саноат, 12 таси чарм-пой-абзал, 22 таси қурилиш материаллари, 31 таси озиқ-овқат, 16 таси кимё, 4 таси фармацевтика, 16 таси электротехника саноати йўналишидадир.

Ҳозиргача 700 миллион долларлик 84 та лойиҳа ишга туширилиб, 6618 та янги иш ўрни яратилди.

Яна 78 та лойиҳада қурилиш-монтаж ишлари амалга оширилмоқда. Қиймати 840,7 миллион долларга тенг бўлган мазкур лойиҳалар охирига етказилганидан кейин 5934 та янги иш ўрни пайдо бўлади.

Тўғри, Ургут жаннатга айланб кетгани йўқ. Ечимини кутиб турган масалалар, йиллар давомида жавобсиз қолган саволлар оз эмас. Таъмир-талаб кўчалар, мактаблар, боғчалар, сув, газ, электр токи билан боғлиқ муаммолар, катта йўлдаги сунъий тўсиқлар, баъзиларнинг «мендан кетгунча...» қабилидаги иш йўсинлари. Масалан, эркин иқтисодий зонада қурилган кўпқаватли уйларнинг канализация тизимидаги носозликлар қанча одамларнинг дилини хуфтон қилди. Хали асфальт тўгул, шагал ётқизилмаган ички йўллар ҳам оз эмас. Аммо уз йиллар давомида сўлиб-сўлимай, қувраб-қувролмай арасизда қолган боғларнинг гулларга бурканаётгани, районлар ҳидига кўмилиб бораётгани бор гап. Бор ҳақиқатларнинг яна бири шуки, жиндай лофи билан айтганда, Ургутда одамнинг жонидан бўлак ҳамма нарса ишлаб чиқарилапти. 8-9 йил ичида эришилди шуларнинг ҳаммасига. «Поезд келдими - келди. Энди аэропорт қурилади!» деган шов-шувлар юрибди Ургутда. Чунки мана бундай бор латифа ҳам бор-да.

Аллақайси узоқ-яқин замонда тўрт ургутлик Ойга борибди. Майиз-ёнгоғини сотиб, бозор-ўчарини битириб, аэропортга келиб, Москвага чипта сўрабди, баҳона-ю сабаб Масковиниям бир кўриб кетайлик, деб. Чипта йўқ. Ленинградга сўрашибди. Йўқ. Киев, Минск, Ташкент, хуллас, собиқ шўро ҳудудидаги катта шаҳарларнинг ҳеч бирига чипта топилмабди. Самарқандга борми, дейишган экан, «Самарқанд, о, Амир Темур!» - ҳаяжонланиб кетибди кассир опа. «Но-но, Самарқандга самолёт учмайди», дебди кейин. Ундай бўлса, Ургутга тўртта билет беринг, дебди йигитларнинг бири. Шунда кассир опа, Верхний Чинарағами, Нижний Чинарағами, дермиш... Ваҳоланки, ойдаги кассир опа тилга олган Верхний Чинар билан Нижний Чинар дейилувчи манзил ораси аслида 4-5 километрдан ошмайди. Шугина жойда десангиз, бир эмас, иккита аэропорт бор эмиш-да!..

Лекин кўрасиз, ҳадемай бу латифам ҳақиқатга айланади!

Гап аэропортга етгани боис Самарқанднинг ҳаво дарвозаси - Самарқанд аэропортининг қайта туғилиши ҳақида гапирмаслик мумкин эмас. 1967 йилда қурилган аэропорт замонадан жуда орқада қолб кетгани аён ҳақиқат эди.

Давлатимиз раҳбари 2019 йилги ташрифи чоғида бу манзилни тамомла буюшадан қуриш ҳақида кўрсатма берди. Янги аэропорт аллома бобомиз Мирзо Улугбекнинг «Зижи жадиди Қўрағоний» китоби шаклида барпо этилди. Бинонинг баландлиги 25, эни 175 метр. У замонавий терминал, учиб-қўниш йўлига, тураргоҳ ва бошқа объектларга эга.

Аваллари кунига 400 йўловчига хизмат кўрсатган аэропорт эндиликда 800 нафар йўловчига хизмат кўрсатмоқда. Аэропортда қарго хизматлари йўлга қўйилиб, турли катталиқдаги самолётлар учун 24 та тураргоҳ ҳам барпо этилган.

Мазкур аэропорт 2024 йилнинг ўзида 1,38 миллиондан ортиқ йўловчига хизмат кўрсатди, бу 2023 йилдаги кўрсаткичдан 37 фоиз кўндр.

Бугун Самарқанд заманининг ҳамма қишлоғу кентларида бир-бирдан обод манзиллар кўпайгандан-кўпайиб бормоқда. Суву манзараларни кўрмоқ учун Зарафшон дарёсининг Равотхўжа кўприги орқали Ургутдан шундоқ Булуғнур ёки Жомбойга ўтиб, атрофга бир таважжўх этмоқ кифоя. Жомбой заводидан чиқаётган автомобиллар, Булуғнур туманида етиштирилаётган мева-сабзавот, картошка ва полиз маҳсулотларини қайта ишлаш, қадоклаш йўлга қўйилгани ёки Самарқанд туманининг «Қорасув» массивида янги шаҳарча пайдо бўлгани кимни севинтирмайди, дейсиз. Янги шаҳарчининг биринчи гишти 2018 йили қўйилди. Туманининг 50 гектар ер майдони Самарқанд шаҳрига ўтказилиб, кўп қаватли уй-жойлар ва ижтимоий соҳа объекти бунёд этиш режаси тузилди. Ва ҳадемай бу ерда 184 та 7, 12, 14, 15, 16 қаватли ва 2 та 25 қаватли уй қад ростлади.

Мазкур тураржойларнинг фасоди уч қаватли қопламадан иборат бўлиб, бу хонадонларнинг қишда иссиқ, ёзда салқин бўлишини таъминлайди.

Массивда 2340 ўринли 2 та мактаб фаолият кўрсатмоқда. 1600 ўринли яна битта мактаб яқинда ишга тушади. 800 ўринли 22 та оилавий боғча, 450 ўринли 2 та давлат боғчаси, 1 та оилавий поликлиника, 1 та туғуруқхона, 2 та хусусий клиника, 2 та банк шохобчаси, 1 та футбол академияси аҳолига хизмат кўрсатмоқда.

Яна 1500 ўринли 5 та боғча, 32 гектар майдонда истироҳат боғи, 6 та соғломлаштириш маркази, 2 та ўйингоҳ, 14 та кўнгличор маскан қурилади. Кейинги йилларда дунёга келган шохона кўргонларнинг яна бири «Ширин» массивидир. Бу манзилнинг муаллифи ҳам ҳурматли Президентимиз бўлди.

Дарҳақиқат, Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2023 йил 6 июнь кунини Самарқандга ташрифи пайтида Зарафшон дарёси бўйида қуриладиган «Ширин» массивининг мастер режа тақдими билан танишиш ва шу кундан эътиборан ободлик ишлари қизиб кетди бу манзилда ҳам.

Қўргонда 60000 хонадонли 254 та уй-жой, 15 та мактаб, 17 та боғча, 5 та тиббиёт муассасаси, 5 та меҳмонхона таш-

қил этилмоқда. Шунингдек, 19 та ишбилармонлик ва бизнес маркази, 36-52 қаватли иморатлар кўкка бўй чўзади. Кўксарой шаҳарчасида 50 дан ортиқ уйлар, 16 та мультифункционал бинолар, соҳил бўйида 30 минг ўринли 2 та масжид, вертикал зоопарк, аквапарк, савдо маркази, эко-парк, очик ва ёпиқ сув ҳавзалари, спорт мажмуаси, ёшлар маркази, Мирзо Улугбек илмий маркази, университет, монорельс, яъни, ерусти метро-си бунёд этилаётир. Бор-йўғи уч йилда қад ростлаган «Боқий шаҳар» эса қадим Регистон ёҳуд Амир Темур мажмуалари каби та-

маркази. 14 та туман, 2 та шаҳар, 1901 та қишлоқ, 1126 та маҳалла, 88 та шаҳарча мавжуд унинг кенг кучоғида. Тарихий манбашунослар Самарқандни миллоддан аввалги VI асрда ташкил топган десалар, мазийшунослар уни Вавилон, Фива, Афина, Рим каби улуг шаҳарлар билан тенгдош, дейдилар.

Соҳибқирон Амир Темур 1370 йили Самарқандни ўз салтанатининг пойтахти қилиб танлаганда, мўғуллар талонидан кейинги афтоҳол кентни қайта тиклашдан кўра, янги шаҳар бунёд этишни маъқул топади ва Афросиёб харобаларининг жанубий томонида янги шаҳар барпо этади.

рих саҳифаларини мангу бебаб тургусидир. Боқиб тўймайсиз, боқиб яйрайсиз, таъзимлар қилгингиз келади бундай маҳобатли мажмуа яратувчиси бўлган истеъдод соҳиби-ю қўли гул бунёдкорларга. Киёси йўқ бу мажмуа ижодкори ҳам давлатимиз раҳбари экани барчага маълум. 2019 йилда Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан Самарқанд туманига қарашли эшак эшик канали бўйидаги 212 гектар майдонда мажмуа қуришга киришилди. Аввало, тажрибали мезмор ва муҳандислардан иборат халқро жамоа жалб этилиб, пухта лойиҳа ишлаб чиқилди. Давлатимиз раҳбари бу ерга бир неча марта келиб, қурилиш миллий меъморчилик аъналарини ва одамларга қулайлик жиҳатидан тақомиллаштириш бўйича кўрсатмалар берди. Бунёдкорлик ишларида малакали қурувчиларнинг билан бирга Туркия, Буюк Британия, Италия каби давлатларнинг етуқ мутахассислари ҳам иштирок этилди.

Пандемия давридаги қийинчиликларга қарамай, қисқа вақтда қуриб битказилган мажмуанинг ҳар қаричида олис тарих, «Буюк Ипак йўли» ва турли даврларга оид тарихий қишлоқ ва одамларга акс эттирилган. Безакларда қадимий Афросиёб деворларида сақланиб қолган Суғд давлати ҳукмдорининг Корея, Хитой, Хиндистон ва бошқа мамлакат элчиларини қабул қилиш маросими тасвирларидан фойдаланилган. Мажмуанинг қадимий бозор қисмида мамлакатимизнинг барча ҳудудларига ҳос 40 та ҳунармандчилик устахонаси қурилган. Бу устахоналарга келган сайёҳлар бутун Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилгандек бўлади. Ёғоч ўймакорлик усталари, кулоллар, заргарлар, гилам тўкувчиларнинг иш жараёнларини кўриб ҳайратга тушади.

Марказ таркибида 8 та замонавий меҳмонхона, Конгресс холл, «Боқий шаҳар», амфитеатр ва яна кўплаб бошқа иншоотлар мавжуд. У йилга 2

Самарқандда бирин-кетин бир-бирдан гўзал, бетакрор обидалар - жоме масжидлари, Кўксарой, Бўстонсарой бунёд этилади, шаҳар атрофида баҳаво, хушманзара 12 та бог-сарой барпо қилинади. Гарчанд 2007 йилда Самарқанднинг 2750 йиллиги кенг нишонланган бўлса-да, шаҳарнинг чин тарихи бу эмаслиги кўпчиликка маълум эди. Шу боис тарихни ўрганиш давом этади ва яқинда Самарқанд археология институти директори Мўминхон Саидов, Ўзбекистон - Франция қўшма экспедицияси аъзолари М.Исомиддинов, Клод Рапен ҳамда М.Ҳасанов томонидан аниқланган янги маълумотлар эълон қилинди. Олимлар Кўктепа ва Афросиёбда топилган материалларни қайта таҳлил қилиш орқали бундан уч минг йиллар олдин ҳам бу ерда йирик шаҳар бўлганини аниқладилар. Урганишлар ўша пайтлари бу манзил шаҳар ҳокимининг қароргоҳи, ибодатхона ва бошқа кўплаб маҳобатли иншоотларни ўз ичига олган йирик шаҳар бўлганини тасдиқлади. Бу ҳолат «Авесто»да тилга олинган «Гава Суғуда» ва «Суғд» тушунчалари билан уйғунлашиб кетадики, буюм хозирча ҳаммаси эмас. 2001 йили ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси объектлари рўйхатига «Самарқанд - маданиятлар қорраҳаси» номи билан киритилиб, муҳофазатга олинган. Қадим кентнинг ўтмишига оид очилмаган сирлар қанчалиги хозирча ёлғиз Яратганнын ўзига аён...

Ер юзининг сайқали - Самарқанд узоқ тарихи, гўзал кўр-ку таровати баробарида ажиб аъналарни ўз бағрида авайлаб-асраётгани билан ҳам хурматга сазовор. Мисол учун, трамвай ҳам бугун мамлакатимизнинг фақатгина мана шу кентида мавжуд. Трамвай йўли давлат раҳбарининг 2017

миллион туриста хизмат кўрсатиши мумкин. Мажмуадаги замонавий меҳмонхоналар ва Конгресс холл аллақачон йирик анжуманлар ўтказиладиган манзилга айланди. 2022 йилда Шанхай ҳамкорлик ташкилоти саммити, Туркий давлатлар ташкилотига аъзо мамлакатлар раҳбарлари учрашуви ўтказилди. 2023 йилда Бутунжаҳон туризм ташкилотининг Бош ассамблеяси саммити, ЕТТБ бошқарувчиларининг йиллик йўналишига ҳам Самарқанд мезбонлик қилди. Бундан ташқари, БМТ ва бошқа нуфузли халқро тузилмалар форум ва анжуманлари ушбу мажмуада ўтказилди. 2025 йилда ЮНЕСКО Бош Ассамблеясининг 43-сессияси илк бор Париждан ташқарида - Самарқандда ўтказилади.

Йилда Самарқандга қилган ташрифидан сўнг амалга оширилди. Уша йили шаҳарнинг «Темирйўл вокзали - Сартепа массиви» йўналишида трамвай қатнови йўлга қўйилди. Кўп ўтмай «Темирйўл вокзали - Сибё деҳқон бозори» орасида 2-йўналиш очилди. Келгусида шаҳар марказидан Кимёгарлар кўргонигача трамвайлар катнайдиغان бўлади.

Айни пайтда шаҳарда Европа тиклиши ва тараққиёт банки лойиҳаси асосида олинган 100 та электробус аҳолига хизмат кўрсатмоқда. 2025-2026 йилларда яна 250 та шундай транспорт воситаси келтирилади ва шаҳар тўлиқ экологик тоза жамоат транспортига эга бўлади. 2022 йили шаҳарнинг Бўстонсарой ва Рудакий кўчалари кесимшасида туннель қурилиши каттаю кичик ҳамма-нинг дунё-дунё кувончига сабаб бўлди. Чунки Бўстонсарой кўчасининг Сибёб канали устидан ўтган қисми анча паст бўлиб, ёгингарчилик пайтида транспорт ва пидедалар учун ноқулайлик туғдириди. Шу боис йўл 23 метргача кўтарилди, эни 31 метр кенгайтирилди. Йўлнинг икки четига ҳимоя воситаси, шовкин камайтирувчи тўсиқлар ўрнатилди. Пидедалар ва велосипед йўлақлари барпо этилди. 2024 йилда Абу Дабӣ тараққиёт жамғармасининг 300 миллион долларлик кредит маблағи ҳисобидан Амир Темур ва Гагарин кўчаларида 10 километрдан ортиқ йўл реконструкция қилиниб кенгайтирилди, пидедалар йўлақлари қурилди. Гагарин ва Мирзо Улугбек кўчалари кесимшасида умумий узунлиги 440 метр, иншоот узунлиги 44 метр бўлган туннель қурилди.

Айни пайтда Гагарин ва Рудакий кўчалари кесимшасида яна бир туннель қурилиши давом этмоқда.

Самарқанд! Ер юзининг сайқали бўлган авлиё шаҳар. Антик муаллифлар асариди Мароқанда, Абу Райхон Беруний ва Маҳмуд Кوشғарий китобларида «Семизкент» дейилган бу қадим шаҳар ўтмишида не-не воқеаларни бошидан ўтказмаган, дейсиз. Милоддан аввалги IV асрда Суғд давлатининг, кейин сомонийлар давлатининг, ундан сўнг Амир Темур, шайбонийлар, 1925-1930 йилларда Ўзбекистонимизнинг пойтахти бўлган шаҳри азим. Искандар Макдунли, Қутайба ибн Муслим, Чингизхон томонидан истило қилинган, сўнгра бир ярим аср давомида чор Россияси ва шўролар босқини...

Неча бор яқсон бўлиб, неча бор тикланган қаҳрамон шаҳар, қадди тоғ шаҳар, мўътабар шаҳар - бугун аҳолиси 4,5 миллионга етай деб қолган йирик вилоятнинг маъмурий

Х а, шоирона ташбеҳ билан ифодаласак, бугун Самарқандда «чаплар уриб гуллаган боғлар» кун сайин, соат сайин кўпайиб бормоқда. Ҳадис илмининг сўлтони Имом Бухорий мажмуасининг тамомла янгидан бунёд этилаётгани, бу ерда Имом Бухорий халқро илмий-тадқиқот маркази ҳамда Ҳадис илми мактабининг ташкил этилгани, макбара майдони 600 квадрат метр, баландлиги 28 метр этиб кенгайтирилгани, 10 минг кишига мўлжалланган масжид бунёд этилгани, мажмуанинг тўрт бурчагидаги 75 метрлик миноралар унга илоҳий улғуворлик бағишлаб тургани кимни қувонтирмайди, дейсиз.

«Яқинда Мадина шаҳрида бўлганимизда пайғамбаримиз Мухаммад алайҳиссаломнинг сийратлари ва ислом цивилизацияси музейини кўрдик. Бу ерда ҳам шунга ўхшаш музей ташкил этсак, яхши бўлар эди. Унда Имом Бухорий бобомизнинг ҳаёти, илм йўли, ўша давр тарихи ахборот технологиялари орқали кўрсатилади. Булар ёшлар, чет эллик сайёҳларнинг яққол тасаввурига қолади. Музей халқимизга яна бир маънавий хазина бўлади», деган эди давлатимиз раҳбари.

Имом Бухорий мажмуаси чин маънода буюк маънавиятимизнинг муаззам устунларидан бирига айланб бораётир.

Бундан ташқари, Ҳазрати Хизр мажмуасида қурилган Биринчи Президентимиз Ислам Каримов макбараси, Университет хиёбонидидаги Конфуций майдони, шаҳар кўчаларини обод қилиб турган кўприклар, туннеллар, меҳмонхоналар, бизнес марказлари, туманларда Хитой, Хиндистон, Япония, Жанубий Корея, Индонезия, Германия ва бошқа давлатлар билан ҳамкорликда ташкил этилаётган қўшма корхоналар...

Самарқанд жамолани муфассал идорқ этмоқ учун яна айрим рақамларга мурожаат қилишга тўғри келади. Дикқат қилинг, ўтган йили вилоятда ялпи худудий маҳсулот ҳажми 99,9 триллион сўмга етди ва аввалги йилга нисбатан 6,9 фоизга ўсиб, 52,9 триллион сўмга кўпайди. Аҳоли жон бошига ҳисоблаганда, бу кўрсаткич 1,9 миллион сўмга ошди. Саноат маҳсулотлари ҳажми 7,6, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотлари 2,7, хизматлар ҳажми 14,1, қурилиш-пудрат ишлари 11,7 фоиз ўсди.

Аҳоли жон бошига саноат маҳсулотлари ҳажми 2023 йилда 7,7 миллион сўмини ташкил этган бўлса, 2024 йилда 10,8 миллион сўмга етди.

Шунингдек, 25,2 мингта янги тадбиркорлик субъекти ташкил этилди. 350,4 минг нафар аҳолининг бандлиги таъминланди. Ишсизлик 6,6 фоиздан 5,4 фоизга камайди. Ўтган йили 264 минг фуқаро меҳнат миграциясидан Самарқандга - азиз хонадонига қайтиб келди.

373,8 километр умумфойдаланувдаги, 2343,1 километр ички, жами 2716,9 километр автомобиль йўллари таъмирланди.

Буллар - 2024 йилга мансуб рақамлардан парчалар. Рақамлар эса ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Юзлаб, минглаб меҳнаткаш одамларнинг пешона тери, қанб қўри бор уларнинг жисми-жониди. Ҳатто миллиятнинг, мамлакатнинг қувва-ю хофизасини - бугунги эртасини рақамларсиз тасаввур қилиш қийин. Уйлаб-уйлаб жўяк олсанг, ўйнаб-ўйнаб сўғорсан, от минсанг, олинси кўзла, дейишди шунинг учун ҳам машойиҳлар. Вилоят меҳнаткашларининг бу йилги марралари, айниқса, баланд. Улар ялпи худудий маҳсулот ҳажминини 112,8 триллион сўмга, аҳоли жон бошига эса 25,9 миллион сўмга, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни 52,7 триллион сўмга, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини 61,6 триллион сўмга, бозор хизматларини 66,7 триллион сўмга, қурилиш-пудрат ишларини 16,6 триллион сўмга кўпайтиришга бел боғланлар.

Йил охиригача ишсизлик даражаси 4,8 фоизга камайиши, «Камбағалликдан фаровонлик сари» дастури доирасида камбағаллик даражасини 3,5 фоизга тушириш кўзда тутилган.

А жабо, мақола ҳажми каттагина бўлиб кетибди-ю, вилоятда амалга оширилаётган катта ишларнинг биронтаси ҳақида ёлчибди ёзолмагандайман, ҳаммаси қолиб кетаётгандай. Ваҳоланки, фақат Нуробод туманида бошланган юмушларнинг ўзи ҳар қандай туманида ақлини шоширади. 115 гектар майдонда 472 миллион долларлик махсус саноат зонаси ташкил этилишини бир тасаввур қилиб кўринг? Мазкур инвестиция лойиҳаси амалга ошгач, 1200 та янги иш ўрни яратилади. Ёки Кўшработ туманида хитойлик инвесторнинг 40 миллион долларлик сармоси ҳисобидан грант тоши қазиб олинб, қайта ишланиши, булуғнурлик тадбиркор «in vitro» лаборатория ташкил этиб, картошка уруғи бўйича бренд яратишга киришгани ва шу туманда 100 миллион долларлик биофармацевтика корхонаси бунёд этиш ҳаракати бошланиб кетгани қабилар ҳазилакам ишлар эмас-да, ахир!

Каттакўргонда, Нарпайда, Пахтачида, Пайарикда, Нурободда қилинаётган ишларнинг ҳам биронтасини тилга ололмадим. Сигмади. Сигмас экан битта мақолага. Кичкина ироққа сизгидир бўлмас экан эзим дарёни. Ҳали кўплаб мақолалар ёзилади, китоблар битилади, кинолар яратилади бу дарёи азим. Ер юзининг сайқали - Самарқанд ва самарқандликлар ҳақида. Куйидаги мисралар ёзилажак асарларнинг ибтидоси бўлса не жабо: Қадимдан Ер юзининг сайқалидир, Самарқанд, Улуг Туркнинг мухташам ҳайкалидир, Самарқанд. Вавилон, Афина, Румога тенг, дейдилар, Бу шохона кентларнинг сарваридир, Самарқанд. Муқанна, Сарбадорлар шиддати бор шонида, Темурбек салтанатин афсаридир, Самарқанд. Искандар, Қутайба-ю Чингиздан шўрогача, Алларимнинг қасоскор халқаридир, Самарқанд. Ҳуррият қуёшида нури чўғланди яна, Бугун Эвриллиларнинг меҳваридир, Самарқанд. Ҳазрат Соҳибқирондек бордир азиз сиймоси, Азиз сиймо қалбининг жавҳаридир, Самарқанд. Ром этгайдир кунма-кун ялдуз ниҳон самони, Илло, Еру самонинг гавҳаридир, Самарқанд. Қадимдан Ер юзининг сайқалидир, Самарқанд...



# Ko'pning oshi shirin bo'ldi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Festivalning asosiy tadbiri — "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasida 50 nafar mahalliy va 5 nafar xorijiy oshpaz ishtirokida tayyorlangan 7 tonna osh bo'ldi.

Uch kun davomida guruch bilan dunyo xalqlarini bog'laydigan taomlar tayyorlanib, turizm rivojiga hissa qo'shish uchun harakat qildik, - deydi O'zbekiston oshpazlari uyushmasi raisi Akbar Umarov. - Yurtimizning barcha hududlaridan eng mohir oshpazlar ishtirok etib, gastronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijlik hamkasblari bilan tajriba almashdi. O'ylaymanki, bu tadbirning natijasi, albatta, hududlarda gastronomik turizm rivojida o'z aksini topadi. Samarqand oshining tayyorlanishidan maqsad uning hajmda emas, balki soha xodimlari o'rtasida hamkorlikni, hamjihatlikni mustahkamlash orqali barcha hududlarda milliy taomlar brendini yaratishdir.

Festival doirasida 200 nafardan ziyod oshpaz ishtirokida musobaqalar tashkil etildi. 20 turdagi noyob osh tayyorlanib, oshpazlardan mahorat darslari, xorijiy mamlakatlarning oshlari va milliy taomlarini tayyorlash jarayonlari, hunarmandchilik va Sharq shirinliklari ko'rgazmalari tashkil etildi.

Men o'z hayotimda ilk bor Samarqandda o'zbek palovining keng madaniy mazmunini his qildim, - deydi pokistonlik oshpaz Amina

Basit. - Biz uchun guruchli taomlar oddiy ovqat bo'lishi mumkin, lekin bu yerda palov - tarix, marosim, oilaviy birlik va mehmondo'stlik timsoli ekani angladim. Men palov pishirishdagi ozik sirlarni ham o'rganishga muvaffaq bo'ldim.

Tayyorlangan osh mehmonlar bilan bir qatorda saxovat va muruvvat uylari, kam ta'minlangan oilalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, tibbiyot muassasalari, manzil koloniyalar va obodonlashtirish bo'limlariga tarqatildi.

Shifoxonamizdagi bemorlar faqat dorilar bilan emas, g'amxo'rlik, mehr va e'tibor bilan ham davolanadi, - deydi respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining psixiatriya xizmati viloyat filiali bosh shifokori Sheroz Imomov. - Shuning uchun bunday tadbirlarda ruhiy qiyinchilikka duch kelgan insonlar ham yodga olinayotgani quvonarli. Gastronomik festival doirasida tarqatilgan osh ana shu g'amxo'rlikning ramziy ifodasi bo'ldi.

Tadbir davomida festivalning ilk kunida mahalliy oshpazlar ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblari hamda jarayonlarni yoritishda faol qatnashgan OAV vakillari va blogerlar turli nominatsiyalar bo'yicha viloyat hokimligi va hamkor tashkilotlarning qimmatbaho esdalik sovg'alari, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida festivalning ilk kunida mahalliy oshpazlar ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblari hamda jarayonlarni yoritishda faol qatnashgan OAV vakillari va blogerlar turli nominatsiyalar bo'yicha viloyat hokimligi va hamkor tashkilotlarning qimmatbaho esdalik sovg'alari, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida festivalning ilk kunida mahalliy oshpazlar ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblari hamda jarayonlarni yoritishda faol qatnashgan OAV vakillari va blogerlar turli nominatsiyalar bo'yicha viloyat hokimligi va hamkor tashkilotlarning qimmatbaho esdalik sovg'alari, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida festivalning ilk kunida mahalliy oshpazlar ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblari hamda jarayonlarni yoritishda faol qatnashgan OAV vakillari va blogerlar turli nominatsiyalar bo'yicha viloyat hokimligi va hamkor tashkilotlarning qimmatbaho esdalik sovg'alari, pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Iqtisodchi sifatida komil ishonch bilan ayta olamanki, O'zbekistonda taraqqiyot kundan kunga dunyo talablari tizimiga kirmoqda. Xususan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish maqsadida turli davlatlar bilan olib borilayotgan muloqotlar bu boradagi siyosatga jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, xorijdan keladigan sarmoyadorlar, ularning ish tartibi ham bizni o'z kasbimizga boshqacharoq qarashga chorlamoqda. Muhimi, biz ana shu ishni uddalayapmiz.

Shu yilning o'zida Senat ma'qullagan qonunlarning aksariyati O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga xizmat qiladi. Bu qonunlar iqtisodiyotimizni jahon andazalariga moslashga yordam beryapti. Shu sababli ham xorijiy sarmoyadorlar O'zbekiston bilan hamkorlik

## Dunyo bizga intilyapti demak shunga munosib bo'lmog'imiz lozim

qilishga intilmoqda.

Hozirgi kunda Samarqandga Yevropa va Osiyo, Amerika qit'asidan investorlar kelmoqda. Davlatimiz rahbarining tashriflari chog'ida joylarda o'tkazilgan muloqotlar samarasini bera boshladi. Dunyo ishbilarmonlari, ayniqsa, bu serquyosh o'lkada noz-ne'mat yetishtirish va uni qayta ishlash bo'yicha ko'plab loyihalarga qo'l urmoqdalar. Bu albatta, bizga dunyo bozoriga yangi yo'llarni ochadi.

Meni quvontiradigan narsa, keyingi besh-olti yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni eksport qilishda yuksak natijaga erishganimizdir. Misol uchun, shu yilning o'zida bizning "Sharq sanoati" konserni tomonidan o'n turdan ortiq 67 million dollarlik mahsulotlarimizni 20 dan ko'proq davlatga sotishga erishdik. Bizda bugun xaridorbop noz-ne'matlar, ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlari sifatli urug'ini, baquvvat

niholini hamda xushta'm mevasini tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar bor, 14 ming tonna sig'imli muzlatkichimiz mavjud.

Samarqandda bunday tadbir-korlarning yildan-yilga ko'payib, deyarli barcha tumanlarda intensiv bog'lar kengayib borayotgani to'g'ri yo'l tanlaganimizni ko'rsatib turibdi.

Lekin hali oldimizda dolzarb vazifalar bor. Xususan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, eksportbop mahsulotlar maydonlarini ko'paytirish, ularning yangi navlarini yaratish, tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yish hamda iqtisodiy hamkor mintaqalarni ko'paytirish. Shuning uchun ham dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikka intilyapmiz, xorijda yarmarkalar, forumlar uyushtiryapmiz. Bu tadbirlar ham o'z samarasini berishiga ishonaman.

Shavkat SHARIPOV,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

## Deputatlar investitsiya loyihalarining ijrosi bilan tanishdi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari Samarqand shahrida yirik investitsiya loyihalarining ijrosi, ijtimoiy obyektlar faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Xususan, O'zLiDeP deputatlari - Abdulla Aslanov, Zebuni-so Rahmonova, Muxsinjon Xolmuhamedovlarning dastlabki o'rganish manzili "AZIA METALL PROF" qo'shma korxonasi bo'ldi. Bugungi kunda korxonada umumiy qiymati 585,6 million dollarlik 9 bosqichli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ulardan 227,4 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya. Bu yerda 1000 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Deputatlar ishlab chiqarish jarayoni, xodimlarga yaratilgan sharoitlar, mahsulot eksportiga oid ma'lumotlarni o'rgandi. Korxonada xodimlari bilan suhbatlashib, ularning fikr va takliflarini oldi.

Keyingi manzil "ACWA Power" tomonidan amalga oshirilayotgan quyosh elektr stansiyasi bo'ldi. Bu yerda quvvati 1000 MVT bo'lgan 2 ta fotoelektr stansiyasi, 500 kVt.li "Nurobod" podstansiyasi va 350 kilometr uzunlikdagi havo tarmoqlari qurilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, 2 ta 334 MVT.li akkumulyator stansiyasi ham barpo etiladi. Loyiha 2027-yilga qadar to'liq quvvatda ishga tushadi va 975 ming xonadonni "yashil energiya" bilan ta'minlash imkonini beradi. Bu orqali katta miqdorda tabiiy gaz tejaliishi va atmosfera chiqariladigan zararli moddalar miqdori kamayishi ta'minlanadi.

Deputatlar Samarqand shahridagi "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi faoliyati bilan ham tanishdi. Markazda keksalar va yolg'izlarni sanatoriya va sihatgohlarga yo'llan-

ma bilan ta'minlash holati o'rganildi. Sohada qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar bildirildi. Jumladan, "Yakka yolg'izlar reestri"da barcha fuqarolarga yilda kamida bir marta yo'llanma berish, mobil ilova orqali navbatni kuza-tish, yo'llanma vaqti va turini o'zgartirish imkonini berish masalalari ko'tarildi.

Uchrashuvlarda taklif va tashabbuslar yuzasidan batafsil fikr almashildi. Hukumat va tegishli vazirliklarga taqdim etish uchun aniq takliflar shakllantirildi. Mahalliy iqtisodiyot, energetika va ijtimoiy sohaga oid muhim vazifalar belgilab olindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jasurbek Shodiyev ham aholi bilan ochiq muloqot qilish, fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan masalalarga ijobiy yechim topish maqsadida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Deputat dastlab Kattaqo'rg'on shahridan Ingichka qo'rg'onida joylashgan «Samkat megastar invest» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdi, ularning fikr-mulohazalarini tingladi.

Korxonada 100 nafar xotin-qiz faoliyat yuritmoqda, yana shuncha ishchi-xodimga ehtiyoj bor. Bu masala yuzasidan Ingichka qo'rg'onidagi mahalla yetkiliklariga bo'sh ish o'rinlarni to'ldirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Uchrashuv davomida xalq vakili Ingichka qo'rg'onida joylashgan tibbiyot muassasasida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarini ham ko'zdan kechirdi. Poliklinika va qurilish korxonasi xodimlari bilan suhbatlashib, qurilishdagi kam-chiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi.

Shuningdek, J.Shodiyev Ingichka boyitish fabrikasidagi ish jarayoni bilan tanishib, mavjud muammo va takliflarni o'rgandi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## TANLOVDA QATNASHING!

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti quyidagi kafedralarda mavjud bo'sh lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

1. Matematika kafedrasini;
2. Informatika kafedrasini;
3. Fizika kafedrasini;
4. Biologiya kafedrasini;
5. Xorijiy tillar kafedrasini;
6. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini;
7. Tarix kafedrasini;
8. Jismoniy madaniyat va sport kafedrasini;
9. Tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrasini.



TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILADI:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumot, ilmiy daraja to'g'risidagi diplomlarning nusxalari;
- ilmiy unvoni to'g'risidagi diplomning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlarning ro'yxati;
- malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
- xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa).

Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida <https://tanlov.uzfi.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 166-uy.  
Telefon: +99890-284-46-49.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Ziyodiloyeva Sanoatga (2020-yil 10-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Shirinov Xolikulga (2010-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Melikov Tursunmurod Kudratovichga (2009-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Raxmonov Shodmon Xabibovichga (2024-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli

mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Madjidov Raimga (2010-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Madjidov Komil Raimovichga (2021-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Sattarov Sherali Abduraimovichga (2025-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Qodaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Tashpulatov Xushvaqtga (2023-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Qodaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Yakubov Nikolay Allaberdiyevichga (2015-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xazratkulov Xusanga (2016-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

BEKOR QILINADI  
Past Darg'om tumanidagi "BARAKA FAYZ DURDONASI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305041737) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

## “Yoshlik” istirohat bog‘idagi muammolar hal etildimi?

Joriy yilning iyun oyida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev mas‘ul tashkilotlar rahbarlari ishtirokida Samarqand shahridagi “Yoshlik” istirohat bog‘ining holati bilan tanishgan edi. Tashrif davomida bog‘ hududida bir qator muammolar qayd etilgan va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berilgandi.



Xususan, o‘yin atraksionlarining belgilanmagan joylarda o‘zboshimchalik bilan o‘rnatilgani, noqonuniy qurilmalarning mavjudligi, hududning ayrim qismlarida maishiy chiqindilar to‘planib qolgan va sanitar holatning qoniqarsizligi kabi kamchiliklar tanqid qilingandi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini o‘rganish maqsadida “Yoshlik” istirohat bog‘ida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdik. Samarqand

shahar obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ushbu bog‘ 5 gektar maydonni egalagan va bugungi kunda 100 nafarga yaqin tadbirkor faoliyat olib bormoqda. Bog‘da 80 ga yaqin o‘yin atraksionlari mavjud.


– Viloyat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlardan so‘ng bog‘ hududida keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, – deydi “Yoshlik” istirohat bog‘i rahbari



Alisher Sirojiddinov. – Jumladan, 2600 kvadrat metr maydonga asfalt yo‘tqizilib, 100 ta zamonaviy o‘rindiqlik va shuncha yoritish chiroqlari o‘rnatildi. Hududni ko‘kalamzorlashtirish maqsadida maxsus suv tarmog‘i tortildi va maishiy chiqindi yig‘ish shoxobchasi tashkil etildi. Shu bilan birga, tegishli tashkilotlar hamkorligida tadbirkorlar tomonidan belgilanmagan joylarda o‘rnatilgan o‘yin qurilmalari olib tashlanmoqda. Hozirda har bir atraksionning texnik tavsifi, quvvati va qaysi yosh toifasi uchun mo‘ljallangani haqidagi maxsus yo‘riqnomalar joylashtirilmoqda.

**Aytish joizki, bog‘ hududida hozir ham tadbirkorlar tomonidan belgilanmagan joylarda o‘zboshimchalik bilan qo‘shimcha o‘yin qurilmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tashkil etilgan maishiy chiqindi yig‘ish shoxobchasiga konteyner qo‘yilmagan, hududda obodonlashtirish ishlari va xavfsizlik tizimidagi muammolar ham to‘liq bartaraf etilmagan.**

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.



Тоҳир Норқулов ярим аср мобайнида Самарқанд ва пойтахтимиздаги қатор таҳририятлар билан ҳамкорлик қилиб, матбуот нашрларини ўзининг фотолавлари билан бойитиб яшади. Ҳатто пенсияга чиққандан кейин ҳам севган касбини ардоқлади, бир-биридан ажойиб, мазмунли суратли мақолалар тайёрлашда давом этди.



У киши фотолава тайёрлаб ёритмаган соҳа, ташкилот қолмагани ҳисоб. Раҳматли ҳамкасбимизнинг фотоаппаратида муҳрланган суратлардан баҳраманд бўлинг.



Kun mavzusi



## Тиббиётдаги оддий хатоликлар

бир инсон умрига зомин бўлса...

**Аёл вафот этди... Қариндошлари, яқинлари пешона, тақдир экан, дейишди. Эҳтимол, шундайдир. Лекин аёл операция вақтида яна бир оғир дард – гепатит "С" ни юктириб олди. Шундоғам сунрақали хасталик билан олишаётган бир пайтда бу унга оғирлик қилди. Кўп ўтмай, аёл вафот этди.**

Тақдиримизда касбга хиёнат туфайли кимнингдир бу дунёдан эртароқ кетишига, оддий тиббиёт қоидаларига риоя қилмаганимиз учун хасталиклар юктириш ҳам бормикан?..

Умуман, шифокорлар хатоси туфайли ортирилаётган кўшимча хасталиклар, ҳатто ўлимларга кўз юмиб кетаётганлар қанча?! Шу саволнинг ўзи инсонни сергақ тортиради.

Самарқанд вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказида 16 ёшли қиз бурун операцияси вақтида вафот этди. Қизнинг қариндошлари айтишича, унинг ўлимига нафас йўлларида тампон текилиб қолгани ва бунинг натижа-сида у нафас ололмай қолгани сабаб бўлган. Ҳолат юзасидан тергов бошланган.

Наманган вилояти Поп туманида оёғи синиб, икки марта операция қилинган бемор комага тушиб, вафот этди...

Буллар ҳали оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган. Шунчаки тақдирга тан берилган тақдирлар қанча?!

Бу мавзунини эши ҳар қандай инсонга оғирлик қилади. Сабаби, тарозининг бир палласида айнан шифокорлар туфайли минг дарддан халос бўлаётган инсонлар бор. Ҳа, бугун тиббий ходимлари ҳар куни минглаб инсонларнинг дардига шифо топяпти, минглаб инсонларга ҳаёт бағишляпти. Айниқса, шошилини тез тиббий ёрдам бўлишлари бахтсиз ҳодисалар туфайли жуда оғир аҳволда келиб, шукр айтиб чиқиб кетаётганлари қанча! Лекин...

Кичик бир камчиликлар туфайли инсон ҳаётини хавф остига қўяётган ходимлар ҳам борлиги беморнинг, яқинларининг эси-дан бир умр чиқмайдиган ҳолатдир. Менинг хотираларимда ҳам шундай бир мисол борки, ҳанузгача ўша шифохонанинг номини эшитсам ҳам вужудим қалтиради. Отам ўша шифохонада вафот этди. Йўқ, шифокорлар отамга яхши қарашди, зарур муолажаларни амалга оширишди. Лекин ҳаммаси отамни ушбу шифохонадан олиб кетишда бошланди. Махсус хонадаги ходим майитни олиб чиқиш учун мен билан савдолаша бошлади! Оиламизга келган бу ғамдан ўзим не аҳвол-даман-у, бундай сўрвудан қандай вазиятга тушганимни тасаввур қилиш қийинмасдир. Ва бу савдо, мана, орадан неча йиллар ўтса ҳамки юрагимга муҳрланиб қолган, гўёки ўша шифохонада ҳалиям майитни савдога қўйишаётгандай туюлади...

Бугун тиббиётда катта ўзгаришлар бўляпти – янгича даволаш усуллари, кор-рупцияга қарши кураш, тизимнинг рақам-лашиши – ҳаммаси қувонарли. Лекин энг замонавий ташхис аппаратларию барча шароитлар муҳайё бўлган бир пайтда оддий қоидаларга амал қилинмагани учун ин-соннинг вафоти кегириб бўлмас ҳолатдир. Бундайин ёзудан тиббиёт ходимларини ҳам, беморни ҳам асрасин, деймиз.

Гулнора ХОЛДОРОВА.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

8-AVGUST

**Saydulla MIRZAYEV** – (1930-2012) – Paxtachi tumanida tug‘ilgan. Adabiyotshunos olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

**Ta‘nabardi QURBONOV** – (1935-2015) – Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti.

9-AVGUST

**Narziqul SHODIYEV** – 1937-yilda Urgut tumanida tug‘ilgan. Pedagogika fanlari doktori.

13-AVGUST

**Foziljon ABDURAPOV** – 1948-yil Samarqand tumanida tug‘ilgan. Faxriy jurnalist.

15-AVGUST

**Telman RAJABOV** – (1935-2020) Samarqand shahrida tug‘ilgan. Fizik olim. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

**Nabijon HASANOV** – (1913-1972) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti, bastakor.

## “Adolat yog‘dusi”

**Ocherk yozuvchining ijodiy yondashuvi bir qadar cheklangan janr hisoblanadi. Xususan, sud ocherki hozirjavoblik, aniqlik, hujjatlariga asoslanganligi bilan muallifdan katta mahorat talab qiladi. Shu sababdanmi bu janrda qalam tebratgan ijodkor soha bilan yaqindan tanish yoki bevosita unda faoliyat yuritgan bo‘ladi.**

Abduhamid Xudoyberdiyev ham butun hayotini matbuotning huquqqa oid yo‘nalishiga bag‘ishlagan ijodkor. U “Kuch adolatda”, “Oliy sud axborot-nomasi” kabi huquqiy gazeta va jurnallardagi faoliyatida bevosita sohaga oid hujjatlar bilan ishladi, ijodiy ishlarida ulardan unumli foydalandi. Shu sababdan, ijodkorning sud ocherklari hayotiyli, voqelikka adolatli yondashilgani, o‘ziga xos xulosalari bilan ajralib turadi.

Yaqinda poytaxtdagi “Zakovat-print” nashriyotida ijodkorning “Adolat yog‘dusi” nomli sud ocherklari to‘plami nashrdan chiqdi. Kitobdan o‘rin olgan ocherklarda yolg‘on va tuhmat, o‘rinsiz taxminlar va yuz bermagan jinoiy hod-



isining xunuk oqibatlarini, inson qadri poymol etilgani, biroq pirovardida odil sudlov ta‘minlanib, haqiqat yuzuga chiqqani turli taqdirlar misolida o‘zining badiiy ifodasini topgan.


Yangi kitoblar

## “Imtihon yaqin”

**“Akademnashr” nashriyotida samarqandlik ijodkor Alisher Aymatli (Esirgap Boliyev)ning “Imtihon yaqin” nomli to‘plami chop etildi.**

Ijodkor kitobda xalqona uslubdagi she‘rlarini jamlagan. Ularning aksariyati Vatan, yurt, komil inson, ota-ona mehri, vaqt qadri, do‘stlikka sadoqat mavzularida. Aslida bular yangi mavzular emas. Ammo ifoda, tasvir, tashbehta o‘ziga xoslik bor. Qolaversa, ushbu ijod namularini katta hayotiy tajribaga ega ijodkorning hayotiy xulosalari deyish mumkin.

Xususan, kitobdan o‘rin olgan “Orzu ham qariydi mening yoshimda”, “Tumanda yo‘qotdim ishqning izini”, “Odamning zahari bedavo darddir”, “Duosiz yashamoq – fojea, uyat!”, “Senga g‘am yuklaydi, tashvish keltirar, Allohni sevishdan boshqa muhabbat” kabi tashbehlar o‘quvchini o‘ylashga, hayot



haqida mushohada yuritishga undaydi.

Shoirning bu kechinmalari bugun u AQShda yashab ijod qilayotgan bo‘lsa-da, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylab o‘tgan yaylovlar, ulug‘ tog‘lar nafasi bilan kamolga yetgani-dan darak beradi.

Sulaymon MARDIYEV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 829 nusxada chop etildi. Buyurtma 362. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO‘ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda